

Kim aybli?

Mo‘min, birodar mo‘min bo‘lgan holda musulmon birodarlarimizning boshig‘a musibat tushsa buning qayg‘usini albata barobar o‘rtoqloshuvg‘a to‘g‘ri kela. Bu albata inkor etmoslik bir haqiqat ekanligi kun kabi oshkorodir.

Bas shunday bo‘lsa, biz salomatlikni erlari Xo‘qand fojiasig‘a qaysi ko‘z ila qoromoq to‘g‘ri keladir (amantu billahi va malaikatihi va kutubihi va rusulihi val yavmil axiri val qodari xoyrihi va sharrihi minallohi ta’ala (val ba’si ba’dal mavt¹) deb iymon kelturgonimizda taqdirmi yozmushina qoromosdin biz islomiyatni o‘g‘rilar changolidin, razolatdin, safolatdin², atolatdin³, jaholatdin qutqoruv umidinda Umumturkiston vakillari siezdinda (Xo‘qand 27 inchi no‘yobr) nafs shaxsiyalari qurbanli o‘lmasdin xaqli yerli muxtoriyat e’lon qilgon erlarg‘ami? Ta’na va bilchiroqlar irg‘itub faqat sizlar ovtonumiya e’lon qildingiz, bu falokatni o‘zingiz boshlodingiz falon qildingiz jazolaringizni torting! deb muxtoriyatni, saodatni, to‘g‘risi din yo‘lida jon bergen shahidlarni ruhlarig‘a duo fotiha o‘quv o‘rnig‘a; ul shahidlarni muborak jasadlarig‘a tahqir qilub o‘tarmizmi?

Arman vahshiyalar tarafindan yuzlab boshlari uzilgan, arman mazolim⁴ dinchilari tarafindan nomuslari poralanub, so‘ng miltiq uchug‘a ko‘torilgan bokira zavolli qizlar kim? U hayotlikni saqlamoq uchun vahshiyalar tarafindan tushgon taklifni minatdorchilik ila qabul etkan, nomahram yuzini ko‘rmagon masturalar kim? Daho Armaniston intiqomini, turkistonlilardan olamiz, deb sala o‘rob, musulmonlar tarafida bo‘lub sala chophonini toshlob qo‘llarig‘a qurol olub istiqbolimizni chuchuklarini (yosh bolalarini) qirmoq uchun hasrat etkan, u, to‘p, pulimitlarni qulog‘ini burgon, muqaddas masjid va madrasalarimizg‘a otdurgon, butun shaharni xarob qilgonda, tom, uy ostinda va hasrato deb fig‘onlarin falakdon oshirub og‘izlarinda millat deb kalima shahodatni talqin qilub jon bergen xarbzdalar kim? Madrasalar ichinda kitoblarini quchoqlob yo rabi deb ruhdin ayrilgon mudaris va talabalar kimlar?

Millatdoshingiz musulmon, islam bolosi islam va to‘g‘on qarindoshingiz turk o‘g‘li turk turkistonlilardir!!! Oh miliun, miliun osiflar o‘lsunkim bizdan bu shahidlarg‘a duo takbir o‘rnig‘a tahqir qiluv lozimdirmi? Jazolari shul deb izhor xursandlik qilamizmi? Bo alfarz tan jazolari shul bo‘lganda, kim aybli bo‘lur? Taqdirmi aybli? Yo bo‘lmasa muxtoriyat olingiz, umum musulmonlar birlashingiz deb isrofil surini tortkon oliy marhamatli tovarish Trunskiy ila Linin afandilar ayblimi? Yoki muxtoriyat deb og‘izlarida, bo‘g‘izlarida qroyivoy isiezdlarda va Maskof sovishchonyasida, har yerda miting‘larda (muxtoriyat deb hoyqirub, dimukrotichisko rispubliko, “xalq jumhuriyati” bo‘lsun, ovtonumiyag‘a layoqatimiz yo‘q, fidrotsiya bo‘lganda qora kuch quvvatli chiqub, xon zamoni bo‘lub chiqmosun, degon so‘zlarg‘a qorshi) bir qoncha so‘zlar ila “ona” boshlar kofir, e’tiqodlari sus deb takfir⁵ va tahqir qilub motoshkon ko‘bdan o‘tmodi.

¹ Allohga, uning farishtalari, kitoblari, rasullari, oxirat kuni, yaxshilik va yomonlik Allohnинг xohishi bilan bo‘lishi va o‘limdan keyin qayta tirilishga ishondim.

² Safolat – pastkashlik.

³ Atolat – bekorchilik.

⁴ Mazolim – zolim.

⁵ Takfir – kufr.

Butun Toshkand aholilarini yakbora itfoqlari to‘lquni ila bo‘lgan muxtoriyat namoyishi kuni umumni itifoqini ko‘rub kayflari uchub muvaqqat hukumatg‘a bay’at va qasamyod qilub turub to‘rt kungina o‘tmosdin muvaqqat hukumatni quvvatsiz deb asossiz vajholar ila umumni oldob, bay’at va qasamlarini tortub olgon (kimlarg‘a istifoda yo‘lini buraqg‘on) musulmonlarni o‘zлari orosinda nidovolni (rozi emaslar) burjuoziya oftonumiysi deb Petrogradg‘a tiligrom beriluvg‘a sababchi bo‘lgan ehtiromli ulamo jamiyatlari ayblimi? Yo‘q ming marotaba yo‘q “val qadar xayra va sharihi min Allohi taolo”⁶ mazmunicha hech kim aybli emas!! Bu bobda yana takror ayta olamizkim taqdirg‘a havola qilgonda u muqadas maslak yo‘lida qurban bo‘lgan shahidlar ruhlarig‘a jonlarimiz ohib duo fotiha qilmasak... islomiyatg‘a, millatg‘a zo‘r jinoyat qilg‘on bo‘lsamiz kerak.

Yana qo‘rqamiz kim bizlarni bu o‘runsiz ta’nalarimizg‘a xudovand akbarni qahri kelub bir juziy falokatlar bila boshimizg‘a Xo‘qand fojialaridan yamonroq falokat va balolarni yog‘durmasun edi... omon! Yo rabi naqadar zamon vaqtlarina qolduk, bir tarafdin ochlik bir tarafdin muhtaram ulamoi kirom ismi ilan shuhrotlongon, ulamoi ismlarini qoralogon shaxsiyatparastlarni umumiylar zararlari va boshimizg‘a tushgon falokatlarg‘a chindin o‘zлari sababchi bo‘lgan bir zamonlarida bechora ma’sum qonlik muqadas o‘lim tobkon shahidlarimizg‘a ta’na, tuhmat va bilchiroq otuvlari “shahid emaslar deb”. Qachon bitar ekon bu milliy xoinlar? Qachon qutulur ekan bu xoinlar changalindin millati islom va butun Turkiston musulmonlari.

*“Ishchilar dunyosi” jurnali. 1918 yil, 15 mart, 5-son.
2-4-bet.*

⁶ Ҳар бир бўладиган яхшилик ва ёмонлик Аллоҳнинг ёзган тақдиридандир.